



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“SOTSIOLINGVISTIKA” FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Abdivaitova Sevinchbonu

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: *Mazkur anotatsiyada sotsiolingvistika fanining maqsad va vazifalari yoritiladi. Sotsiolingvistika til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganadigan tilshunoslik sohasi bo‘lib, uning asosiy maqsadi til birliklarining ijtimoiy omillar yosh, jins, kasb, ijtimoiy mavqe, hudud va madaniy muhit bilan bog‘liq holda qanday qo‘llanishini aniqlashdan iborat. Fan doirasida tilning ijtimoiy tabaqalanishi, nutqiy variantlar, dialektlar, til siyosati hamda ko‘p tillilik masalalari tahlil qilinadi. Sotsiolingvistikaning vazifalari qatoriga jamiyatda tilning funksional imkoniyatlarini belgilash, nutqiy xulq-atvorning ijtimoiy xususiyatlarini tadqiq etish, til va ijtimoiy ong o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berish kiradi. Shuningdek, til o‘zgarishlarining ijtimoiy sabablarini aniqlash, til me‘yorlari va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta‘sirini baholash ham muhim vazifalardan hisoblanadi. Mazkur fan tilshunoslik, sotsiologiya va madaniyatshunoslik chorrahasida rivojlanib, tilning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy asosda tushuntirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *sotsiolingvistika, vazifa, maqsad, jamiyat, til, millat, tadqiqot, ijtimoiy, adresat, adresant, kommunikatsiya, nutq*

ABSTRACT: *This annotation highlights the aims and objectives of sociolinguistics. Sociolinguistics is a branch of linguistics that studies the interaction between language and society, and its main aim is to determine how linguistic units are used in connection with social factors such as age, gender, profession, social status, region, and cultural environment. Within this field, issues such as social stratification of language, speech varieties, dialects, language policy, and multilingualism are analyzed. The objectives of sociolinguistics include identifying the functional capacities of language in society, studying the social characteristics of speech behavior, and revealing the relationship between language and social consciousness. In addition, determining the social causes of language change and evaluating language norms and their impact on social development are also considered important tasks. This discipline develops at the intersection of linguistics, sociology, and cultural studies, and serves to explain the role and significance of language in society on a scientific basis.*

Keywords: *sociolinguistics, task, aim, society, language, nation, research, social, addressee, addressor, communication, speech*

АННОТАЦИЯ: *В данной аннотации рассматриваются цели и задачи социолингвистики. Социолингвистика является отраслью языкознания, изучающей*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



взаимодействие языка и общества, а её основной целью является выявление особенностей использования языковых единиц в зависимости от социальных факторов, таких как возраст, пол, профессия, социальный статус, территория и культурная среда. В рамках данной науки анализируются социальная стратификация языка, речевые варианты, диалекты, языковая политика и проблемы многоязычия.

К задачам социолингвистики относятся определение функциональных возможностей языка в обществе, исследование социальных особенностей речевого поведения, а также раскрытие взаимосвязи между языком и общественным сознанием. Кроме того, важными задачами считаются выявление социальных причин языковых изменений, оценка языковых норм и их влияния на общественное развитие. Данная наука развивается на стыке языкознания, социологии и культурологии и служит научному объяснению роли и значения языка в жизни общества.

Ключевые слова: *социолингвистика, задача, цель, общество, язык, нация, исследование, социальный, адресат, адресант, коммуникация, речь*

Bugungi kunda fan sohalari orasidagi chegara ancha nisbiy xarakter kasb etmoqda. Bunday fanlarga sotsiologiya va tilshunoslik fanlarining tutash nuqtasida rivojlanayotgan sotsiolingvistika misol bo'la oladi. Sotsiolingvistika tilshunoslikning tilni va uning mavjud bo'lgan ijtimoiysharoitlar bilan bog'liqligini o'rganadigan sohasidir. Ijtimoiy sharoitlardeganda, amaldagi til rivojlanayotgan tashqi shart-sharoitlar majmuyi: tildan foydalanayotgan kishilar jamiyati, bu jamiyatning ijtimoiystrukturasi, til egalarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, madaniyat va bilim darajasi, yashash joyi orasidagi farqlari, shuningdek, ularning muloqot vaziyatiga bog'liq boigan nutqiy maomalasidagi farqlar tushuniladi. Demak, sotsiolingvistika tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiytabiati, ijtimoiy funktsiya(vazifa)lari, ijtimoiy omillarning tilga bo'lgan ta'sir mexanizmi bilan bog'liq masalalami o'rganadigan tilshunoslik sohasidir. "Sof" lingvistika lisoniy belgilarni, chunonchi, tovush va uning yozma ifodasini, uning boshqa belgilar bilan o'zaro munosabatini, vaqt va zamonda o'zgarishini va h.k. tahlil qilish bilan shug'ullansa, sotsiolingvistika insonlar mazkur lisoniy belgilarni ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, bilimi va madaniyatlilik darajasiga ko'ra qanday qo'llashlarini, ya'ni ijtimoiy muhitning ularning nutqiy muomalasiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Masalan, "sof" lingvistikada tomi ketmoq iborasi ot va fe'ldan tarkib topgan frazeologik birlik sifatida talqin qilinsa, sotsiolingvistikani mazkur ibora qaysi tabaqa vakilining so'zlashuv nutqida qo'llanilgani qiziqtiradi. Xullas, sotsiolingvistikaning tilga nisbatan o'ziga xos yondashuvini va uning "sof" lingvistikadan farqini tushunish uchun sotsiolingvistikaning manbalarini ko'rib chiqish, uning tilshunoslikning boshqa yo'naiishlari orasidagi mavqeyini belgilash, uning obyekt va asosiy tushunchalarini, u shug'ullariadigan masalalarni aniqlab olish lozim bo'ladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Sotsiolingvistika so'zi ikki qishdan iborat bo'lib, lotincha “socialis” “jamiyat”, “lingua” “til” so'zlaridantashkil topgan. Sotsiolingvistika - ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar bilan aloqador hisoblanib, unda til va uning ijtimoiy vazifalari, mexanizmlari va shu kabi tilning muammolarini o'rganuvchi sohasisoblanadi. Sotsiolingvistika har bir xalq, millat va elatning tillari, ularning xulq-atvori, qadr-qimmatibilan chambarchas bog'liq. “Sotsiolingvistika” terminini fanga birinchi bo'lib 1952-yilda amerikaliksotsiolog olim G.Karri kiritdi. Sotsiolingvistikaning shakllanishida I.A.Boduen de Kurteneninghamtadqiqotlari muhim o'rin tutgani haqida keltirilgan manbalar uchraydi. I.A Boduen de Kurtene: “Til faqat kishilar jamiyatida mavjud ekan, u holda uning ruhiytomonidantashqari, ijtimoiy tomoniga ham har doim e'tibor qaratishimiz kerak. Nafaqat, individual psixologiya, balki sotsiologiya ham tilshunoslikning asosi bo'lib xizmat qilishi lozim”, - deb yozgan.¹¹⁸

Sotsiolingvistikaning fan sifatida shakllanishida jahonning ko'pgina davlatlarining maktablarida I.A. Boduen de Kurtene, Y.D. Polivanov, L.P. Ykubinskiy, V.M. Jirmunskiy, B.A. Larin, A.M. Selishev, G.O. Vinokur va boshqa olimlarning ilmiy g'oyalari turtki bo'ldi. Fan va texnika taraqqiyoti tufayltilshunoslik fani ham boshqa fanlar qatori jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Asosan, sotsiolingvistikaga bo'lgan qiziqishning kuchayishi turli sabablarga bog'liq. Jumladan, aynan jamiyatning ilmiy asoslangan siyosatiga ehtiyoj borligi va tilning tashqituzilishidan ko'ra ichki tuzilishini o'rganishga bo'lgan qiziqishlar ko'pligi sabab XX asrning 30- yillarida strukturalizm (lotincha. structure - tuzilish, joylashish, tartib tilni asosan bir tomonlama o'rganishni ya'nishakl va ma'no birligi jihatidan emas, balki, faqat shakl jihatidan o'rganishga e'tibor berildi. Biroq bunatija bermadi, ya'ni bu oqim inqirozga uchradi. So'ngra tilning rivojlanib, boyib borishi, uzoqvaqtgachayashab qolishi jamiyat bilan uzviy aloqada ekanligi aniqlandi. Haqiqatan ham, agar jamiyat bo'lmasa, ya'ni insonlar birgalikda o'zaro muloqot jarayonida bir tildan foydalanmas ekan, til o'z-o'zidan yo'qolib ketadi. Shu bilan bir qatorda insonlar o'zaro aloqa-aralashuvga kirishmas, hech biri nutq so'zlamas, ehtiyoji bo'lib turib muloqot qilmas ekan bunday jamoani jamiyat deb bo'lmaydi. Jamiyat rivojlanishi, o'zgarishlar olib borishi uchun insonlar o'zaro fikr almashishi, talab va takliflar bildirishi, o'ylang'oyalarini insonlarga tushuntira olishi kerak. Til tizimida “sotsiolingvistik tahlil” degan tushuncha bo'lib, unda asosan tilning jamiyatda qanday faoliyat ko'rsatishi va qanday vositalarni bajarishda ishtirok etadi. Bu tahlil tillarning bir-biriga o'xshamasligi, tubdan farq qilishini namoyon qilib beradi. “Sotsiolingvistika ma'lum bir sharoitda ma'lum bir axborotni nutq birliklari vositasida tinglovchiga yetkazish, bu nutq parchasida so'zlovchi belgi-xususiyatlarining in'ikosi, uning tinglovchigata'sirimasalalarini o'rganadi va o'rgatadi”. Xulosa qilib aytganda, sotsiolingvistika maqsad va vazifalari deganda kommunikatsiya jarayonida tilning funksional ko'rinishlari, uning jamiyatda qay sohalarda qanday holatlarda namoyon bo'lishi,

¹¹⁸<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sotsiologiya>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



shu bilan birgalikda jamiyatimizdagi madaniy- ma'rifat, iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal etishda foydalaniladi.¹¹⁹

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sotsiologiya>
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika>
3. <https://zenodo.org/records/10035789>
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi " O'zbekiston " Toshkent - 2023
5. Usmanova Sh, Bekmuxammedova N, Iskandarova N. "Sotsiolingvistika" . Toshkent " . "Universitet"2014-yil 4 -bet

¹¹⁹ Usmanova Sh, Bekmuxammedova N, Iskandarova N. "Sotsiolingvistika" . Toshkent " . "Universitet"2014-yil 4 -bet

